



TIJORAT BANKLARIDA MOLİYAVIY RISKLARNI BOSHQARISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Karimov Komiljon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-1653-0049

komil_karimov@yahoo.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida moliyaviy risklarni boshqarish jarayonlari bo'yicha nazariy va amaliy jihatlar o'rganiladi. Xususan, moliyaviy risklarni aniqlash, baholash, nazorat qilish, monitoring va hisobot berishning zamonaviy usullari orqali tahlil qilinib, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi moliyaviy risklar bilan bog'liq muammolarga kompleks yondashuvni ishlab chiqish va tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ushbu yondashuvni qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdir.

Kalit so'zlar: likvidlilik riski, kredit riski, bozor riski, tijorat banklari, riskni aniqlash, baholash, nazorat qilish, monitoring, hisobot, rentabillik, inflatsiya, foiz stavkalari.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Каримов Комилжон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты процессов управления финансовыми рисками в коммерческих банках. В частности, анализируются современные методы идентификации, оценки, контроля, мониторинга и отчетности по финансовым рискам, а также разрабатываются практические рекомендации по совершенствованию управленческих процессов. Основной целью статьи является разработка комплексного подхода к решению проблем, связанных с финансовыми рисками, и определение возможностей применения данного подхода для обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков.

Ключевые слова: риск ликвидности, кредитный риск, рыночный риск, коммерческие банки, идентификация риска, оценка риска, контроль, мониторинг, отчетность, рентабельность, инфляция, процентные ставки.

IMPROVING THE FINANCIAL RISK MANAGEMENT PROCESS IN COMMERCIAL BANKS

Karimov Komiljon

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of financial risk management processes in commercial banks. In particular, modern methods of identifying, assessing, controlling, monitoring, and reporting financial risks are analyzed, and practical recommendations for improving management processes are developed. The main objective of the article is to develop a comprehensive approach to addressing issues related to financial risks and to identify the possibilities for applying this approach in ensuring the financial stability of commercial banks.

Keywords: liquidity risk, credit risk, market risk, commercial banks, risk identification, risk assessment, control, monitoring, reporting, profitability, inflation, interest rates.

Kirish.

Tijorat banklari iqtisodiy tizimda asosan moliyaviy vositachilik funksiyasini bajarib, resurslarning oqilona taqsimlanishi, pul oqimlarining uzluksizligi hamda moliyaviy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, jahon moliya bozorlaridagi tebranishlar, makroiqtisodiy omillarning o'zgaruvchanligi va noaniqlik darajasining ortishi banklar faoliyatida moliyaviy risklarning ta'sirini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, foiz stavkalari, valyuta kurslari hamda moliyaviy instrumentlar qiymatining o'zgarishi bilan bog'liq risklar banklarning daromadlilik, kapital yetarliligi va umumiy moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, moliyaviy risklarni samarali boshqarish tijorat banklari barqaror faoliyatining asosiy shartlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon banki O'zbekistonning birinchi moliyaviy sektorni baholash dasturi (Financial Sector Assessment Program – FSAP) doirasida 2024- 2025-yillarda O'zbekiston moliyaviy sektorning asosiy zaif jihatlari va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlaydi hamda tegishli siyosiy tavsiyalarni taqdim etadi. Unda, FSAP doirasida o'tkazilgan to'lovga layoqatlilik bo'yicha stress-testlar moliyaviy tizimdagi asosiy zaifliklar kredit riski bilan bog'liqligini ko'rsatadi hamda davlat ulushiga ega tijorat banklarining muammolarini tasdiqlaydi. Asosiy zaifliklar sifatida banklarning kredit riskini, jumladan xorijiy valyuta ta'siri orqali yuzaga keladigan bilvosita kredit riski hamda likvidlilik riski bilan bog'liqligini keltirgan. Kredit riski aktivlar sifati ko'rsatkichlarining oshirib baholanishi bilan yanada kuchaymoqdaligini hamda nomoliyaviy korxonalarga berilgan kreditlar yuqori darajada dollarlashgan bo'lib, valyuta xedjingi mavjud bo'lmagan korxonalar valyuta kursining pasayishiga nisbatan ayniqsa zaif hisoblanishini, shu bilan birga, doimiy zarar bilan faoliyat yuritayotgan ayrim korxonalar bilan bog'liq zaiflik o'choqlari ham mavjud (International Monetary Fund, 2025) deya hisobotida keltirganligi moliyaviy risk tarkibiga kiradigan kredit risklarni kamaytirish bo'yicha zaruriy amaliy ishlarni bajarishni taqqoza etmoqda.

O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonining 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlarining "Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish" to'g'risidagi 50-bandi doirasida Banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish vazifasi qo'yilganligi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2023) banklarda risklarning asosiy ulushini tashkil etadigan moliyaviy risklarni boshqarish jarayonlarini ham takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi sharoitda moliyaviy risklarni samarali boshqarish tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi hamda raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Risklarni aniqlash, baholash va boshqarishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni qo'llash bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni minimallashtirish bilan birga, strategik qarorlar qabul qilish jarayonida yangi imkoniyatlarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Yuqorida bayon etilgan holatlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida moliyaviy risklarni baholash masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish hozirgi sharoitda alohida dolzarblik kasb etadi. Global va mintaqaviy moliya bozorlaridagi beqarorlik, makroiqtisodiy omillarning o'zgaruvchanligi hamda bank faoliyatida risklar ta'sirining kuchayib borayotgani moliyaviy risklarni aniqlash, baholash va boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni takomillashtirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarida moliyaviy risklarni baholash bo'yicha zamonaviy metodlar va modellarni ishlab chiqish, ularni milliy bank tizimi sharoitlariga moslashtirish hamda amaliyotga joriy etish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kapital va likvidlilik yetarliligini ta'minlash, shuningdek, bank tizimi faoliyatining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Al-Anbagi (2025) moliyaviy risk tashkilotlarning moliyaviy majburiyatlarini bajarish va qarzlarni boshqarish qobiliyatining pasayishi sifatida ta'riflanadi. Bu holat moliyaviy bozorlardagi beqarorlik yoki yo'qotishlar, shuningdek aksiyalar narxlari, valyuta kurslari, foiz stavkalari va boshqa omillarning o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Moliyaviy risk, shuningdek, tashkilotning moliyaviy natijalari, barqarorligi yoki moliyaviy qiymatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ehtimoliy noxush hodisalar yoki noaniqliklarni anglatadi deya ta'rif bergan.

Ubul va Kithandi (2025) bank sohasiga xos bo'lgan moliyaviy risklar bir qator tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi, jumladan kredit riski, likvidlilik riski, bozor riski va operatsion risk deb hisoblaydi. Ushbu risklar bankning foydaliligi, moliyaviy barqarorligi va umumiy faoliyat natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Iqtisodiy sharoitlarning o'zgarib borishi esa banklarda moliyaviy risklarni boshqarishni yanada murakkablashtiradi deya ta'kidlaydi. Biroq operatsion risklarni moliyaviy risklar tarkibiga kiritilganligi munozarali holat. Umuman olgan operatsion xususiyati bilan ham moliyaviy risk tarkibi kiritilmaydi.

Juma and Atheru (2018) moliyaviy riskni bozor beqarorligi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish ehtimoli sifatida ta'riflaydi. Bunga aktivlar narxlarining o'zgarishi, valyuta kurslaridagi tebranishlar hamda foiz stavkalari volatilligi kiradi. Bank muassasalari uchun moliyaviy risklarni samarali boshqarish uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash va ehtimoliy yo'qotishlarni minimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Ngo and Trinh (2025) moliyaviy risklar bankning foydaliligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda, ayniqsa iqtisodiy noaniqlik davrlarida, kengroq bank tizimi doirasida moliyaviy beqarorlikning muhim omillari hisoblanishini boshqacha aytganda, moliyaviy risklar bank sohasi duch kelayotgan eng muhim muammolardan biri bo'lib, ular banklarning faoliyati va barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi deya fikr bildiradi.

Skrebtsova (2015) moliyaviy risk bu mablag'larni noto'g'ri joylashtirish yoki ular bilan samarasiz manipulyatsiyalar amalga oshirilishi natijasida mablag'larni to'liq yoki qisman yo'qotish ehtimoli, shuningdek real olingan foydadan yuqori bo'lishi mumkin bo'lgan muqobil (alternativ) foydani yo'qotish xavfidir deb tarif beradi.

Moliyaviy risk bu moliyalashtirish bilan bog'liq turli risk turlarini o'z ichiga oluvchi tushuncha bo'lib, unga defolt xavfi mavjud bo'lgan kompaniya kreditlari bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalar ham kiradi. Ko'pincha moliyaviy risk faqat salbiy (pastga yo'nalgan) risk sifatida talqin qilinadi, ya'ni moliyaviy yo'qotish ehtimoli va uning qanchalik miqyosda bo'lishi mumkinligi haqidagi noaniqlikni anglatadi (Wikipedia, 2025).

Yuqorida keltirilgan ilmiy yondashuvlardan kelib chiqib, moliyaviy risk deganda tijorat banklari faoliyatida kredit, bozor va likvidlilik omillariga xos noaniqliklar natijasida bankning moliyaviy holati hamda barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kutilmagan moliyaviy yo'qotishlar ehtimoli deya tarif berish mumkin.

Tadqiqotlar metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarida moliyaviy risklarni boshqarish va baholash metodologiyasiga oid xorijiy olimlarning ilmiy ishlari hamda xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlardan keng foydalanildi. Tadqiqotda tahlil va sintez, taqqoslash, guruhlash kabi umumiy ilmiy usullar, shuningdek, moliyaviy tahlil, statistik kuzatuv va iqtisodiy taqqoslash kabi umumiy iqtisodiy usullar qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan kelib chiqib, tijorat banklarida moliyaviy risklarni uchta asosiy guruhga ajratib o'rganamiz. Xususan, kredit riski, likvidlilik riski hamda bozor risklari. Bozor risklari, o'z navbatida, foiz stavkalari riski, valyuta riski va fond (qimmatli qog'ozlar) risklarini o'z ichiga oladi.



1-rasm. Moliyaviy risk guruhlari

Kredit riski

Kredit riskini boshqarishning eng asosiy maqsadi – risk darajasini minimallashtirish orqali kredit portfeli sifatini oshirishga erishish hisoblanadi. Shuningdek, kredit riskini boshqarish maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

kredit portfeli tarkibiga kiruvchi kredit operatsiyalarining risk darajasini aniqlash;

kredit risklari bo'yicha risk-appetitini o'rnatish;

kredit riskini holati va miqdori to'g'risida operativ hamda obyektiv ma'lumotlar olib borish;

kredit riskini sifat va miqdoriy jihatdan baholash.

Kredit risklarini boshqarish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

baholashning kompleks xarakteri – bankda kredit riskining haqiqiy darajasini belgilash va uni tartibga solish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida kredit bilan bog'liq faoliyatining muhim tomonlarini qamrab oladi;

risk darajasini belgilovchi asosiy mezon – qarzdorning kreditga layoqatliligini baholashning moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlaridir. Riskni kompleks baholashda qarzdorning moliyaviy ko'rsatkichlari bilan individual suhbat jarayonida yoki avtomatik tizimlar orqali olingan sifat ko'rsatkichlarini uyg'unlashtirish kerak;

oldingi davrlardagi risk faktorlarini baholash va ularning kelgusidagi ta'sirini prognoz qilishni tezkorlik bilan amalga oshirish kerak. Ushbu tamoyilning mohiyati bank kredit riskini oshishiga olib keluvchi tashqi va ichki o'zgarishlarga tezkorlik bilan tahlil qilishini va uni tartibga solish uchun zarur choralarni qo'llashi lozimligini anglatadi;

kredit riskini baholash obyektiv va aniq bo'lishi, ya'ni ishonchli ma'lumotga asoslanishi, kredit portfeli sifatini oshirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar esa tahliliy hisob-kitoblardan kelib chiqib berilishi kerak;

kredit riskini boshqarishning zamonaviy vositalaridan foydalanish;

qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini baholashda kredit riski darajasini aniqlash jarayonida belgilangan ko'rsatkichlardan tizimli foydalanish;

kredit riski darajasini obyektiv baholashda, to'g'ri, ishonchli va joriy statistik ma'lumotlardan foydalanish;

kredit riskini boshqarish jarayonini bankning tashkiliy tuzilmasi bilan muvofiqlashtirish;

qarorlar qabul qilishda bankning kollegial organlari, tarkibiy bo'linmalari va mansabdor shaxslarining vakolatlarini aniq belgilash;

biznes jarayonining barcha bosqichlarida kredit riski darajasi ustidan nazoratni markazlashtirishga e'tibor qaratish;

kredit riski darajasini baholovchi va nazorat qiluvchi bo'linmalarining biznes tarkibiy bo'linmalaridan to'liq mustaqilligini ta'minlash.

Riskni minimallashtirish (yoki riskni tartibga solish) - bu risk darajasini bank moliyaviy barqarorligiga, omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazmaydigan darajada ushlab turishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish hisoblanadi. Bu o'z ichiga quyidagi

jarayonlarni oladi: risklarni prognozlashtirish, risklarning ehtimoliy miqdorlari va oqibatlarini aniqlash, u bilan bog'liq yo'qotishlarni oldini olish va minimallashtirishga qaratilgan zaruriy ishlarni amalga oshirish.

Kredit riskini boshqarishning samarali tuzilishi quyidagi asosiy qismlarni o'z ichiga oladi: kredit riski appetiti – risklarni qabul qilish doirasida bank biznes rejasining maqsadli ko'rsatkichlari hamda strategik maqsadlarga erishish uchun bank tomonidan oldindan qabul qilishga yoki rad etishga rozi bo'lgan risklarning umumiy hajmi va/yoki sifatini ifodasi sifatida belgilanadi; kredit riskini boshqarish tartibi – ushbu tartibga asosan kredit riski boshqariladi va tartibga solinadi; kreditlarni berish, qaror qabul qilish jarayoni – kredit berish va qaror qabul qilish berilgan vakolatlar doirasida amalga oshiriladi; kreditni boshqarish va monitoringi – kreditni boshqarish berilgan vakolatlar doirasida boshqariladi va monitoring qilib boriladi.

Kredit risklarini yuzaga kelish sabablari ko'plab sabablar bilan, xususan har bitta kredit bo'yicha yoki kredit portfeli darajasiga bog'liq bo'lishi mumkin. Har bir kredit bo'yicha kredit riskining yuzaga kelish sabablari quyidagilardan iborat: qarzdorning kreditni qaytarishi yoki xizmat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan pul tushumiga ega bo'lmaganligi; garov likvidligi riski; kafilning o'z majburiyatini bajarmaslik riski.

Kredit portfeli darajasida kredit riskini yuzaga kelish sabablariga quyidagilar kiradi: iqtisodiyotning bir tarmog'ida kreditlarni haddan tashqari konsentratsiyasi; iqtisodiyotni barcha tarmoqlari xususiyatlarini tushunadigan mutaxassislarni yo'qligiga qaramasdan kreditlarni turli tarmoqlar bo'yicha haddan tashqari diversifikatsiyasi; xorijiy valyutada berilgan kreditlar uchun valyuta kurslarining o'zgarishi; bankning emas, balki mijozlarning ehtiyojidan kelib chiqib shakllangan nomukammal kredit portfeli strukturasi; xodimlarning malaka darajasi.

Yuqorida keltirilgan kredit risklarining yuzaga kelish faktorlari, qarzdorning faoliyati natijalari va kutilmaganda yuzaga kelish mumkin bo'lgan potensial sabablarini tahlil qilish sifatiga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Tashqi faktorlarni boshqarish imkoniyati cheklanganligi hisobga olinsa, kredit portfeli riskini tartibga solishning asosi bankning ichki siyosatidir.

Kredit riskini boshqarish quyidagi bosqichlardan tashkil topgan: kredit riskini aniqlash (identifikatsiyalash); kredit riskini baholash; kredit riskini monitoring qilish; kredit riskini tartibga solish. Kredit riskini tartibga solishning asosiy yo'nalishi kredit riskini oldini olish yoki ular bilan bog'liq yo'qotishlarni minimallashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Kredit riskini minimallashtirish kreditlar bo'yicha yo'qotishlarga olib keluvchi vaziyat va holatlarni paydo bo'lish ehtimolini kamaytirish va (yoki) potensial yo'qotishlarni chegaralash kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Kredit portfeli riskini tartibga solishning asosiy usullari quyidagilar hisoblanadi: diversifikatsiyalash; limitlar belgilash; zaxiralar tashkil etish; vakolatlar va qarorlar qabul qilish tizimi.

Bank kredit portfelini diversifikatsiyalash - kreditlarni qarzdor turlari, muddatlari, ta'minot turlari, tarmoq belgilari bo'yicha taqsimlash orqali amalga oshiriladi. Kredit portfelining muddatlar bo'yicha diversifikatsiya qilish alohida ahamiyatga ega bo'lib, bunda kredit muddatining ortishi bilan kredit tavakkalchiligi darajasi ham ortib boradi.

Qarzdorlarni diversifikatsiyalash, kreditlash maqsadlari (iste'mol, ipoteka, ta'lim, mikroqarz, overdraft va boshqalar) bo'yicha turli aholi guruhlariga qarab amalga oshirilishi mumkin. Xo'jalik subyektlariga nisbatan esa diversifikatsiya mulkchilik shakli hamda faoliyat sohasiga ko'ra ham amalga oshirilishi mumkin. Tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyalash kreditlarni o'z faoliyatini iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan mijozlar bo'yicha taqsimlashni ko'zda tutadi. Yuqorida belgilangan cheklovlardan tashqari, bank kredit risklarini chegaralash uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha cheklovlar o'rnatishi mumkin: iqtisodiy faoliyat turlari uchun; hududlar uchun; jismoniy shaxslarni chakana kreditlash

yo'nalishlari uchun; xorijiy valyutadagi kreditlar uchun; kredit maqsad turlari uchun; mahsulot turlari uchun.

Bank uchun kredit portfeli riskligi darajasini kamaytirishning samarali usuli zaxiralar tashkil etish hisoblanadi. Ushbu usul omonatchilar, kreditorlar, aksiyadorlar bilan bir qatorda kredit portfelining sifatini, bankka bo'lgan ishonchni himoyalashga qaratilgan. Zaxiralar tashkil etish qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi natijasida majburiyatlarni bajara olmasligi oqibatida zarar ko'rmaslik maqsadida tashkil etiladi.

Likvidlik riskini boshqarishda quyidagilarga e'tibor berish kerak: likvidlik riskini bankning risk-appetiti bilan belgilangan chegaralar doirasida boshqarish; likvidlikni boshqarish bo'yicha me'yoriy talablarga rioya qilish, shu jumladan likvidlik riski koeffitsiyentlariga rioya qilish; favqulodda vaziyatlarda bank faoliyatini davom ettirish uchun yetarli likvidlik zaxirasini saqlash; likvidlik riskini boshqarish bo'yicha tashkiliy tuzilmani yaratish; aktivlar va passivlarni to'g'ri va samarali boshqarish; likvidlik riskini boshqarishning barcha usullari va tartiblari asosida belgilangan limitlarga rioya etilishini nazorat qilish.

Bankning boshqaruv organlari qarorlar qabul qilishda ratsionallik tamoyiliga amal qiladi, bunga asoslanib, likvidlik riskini boshqarish xarajatlari mumkin bo'lgan yo'qotishlardan oshmasligi kerak. Likvidlik riskini boshqarish jarayonida qarorlar qabul qilish bankning quyidagi kollegial organlari tomonidan amalga oshiriladi: Xususan Aktivlar va passivlarni boshqarish bo'yicha qo'mita (APBQ) o'z vakolatlari doirasida: likvidlik riskiga nisbatan risk appetiti parametrlari va hajmi bo'yicha takliflarni muvofiqlashtiradi; bankning likvidlik riski va resurslarini boshqarish ustidan muntazam nazoratni amalga oshiradi.

Likvidlik riskini boshqarishning bir qismi sifatida likvidlik riskini aniqlashning quyidagi tartiblari ajratiladi: likvidlik xavfi turlarini aniqlash; likvidlik riski turlarining muhimligini baholash; likvidlik xavfi bo'lgan operatsiyalarni aniqlash (yangi mahsulotlarni ishlab chiqishda, bankning tashkiliy tuzilmasi va jarayonlarini o'zgartirishda, iqtisodiy/bozor sharoitlarini o'zgarishida va hokazo).

Bank likvidlik riskini o'lchash (baholash) uchun quyidagi usullardan foydalanishi mumkin: alohida majburiyatlarning alohida aktivlar bilan qoplanishini baholash; likvidlik tafovutlari yoki GAP tahlili, likvidlik holatini aktivlar va passivlarning joriy holatidan kelib chiqqan holda, ma'lum bir vaqt oralig'ida so'ndirilishi lozim bo'lgan aktivlar va passivlar hajmlari (statik yondashuv) yoki kutilayotgan kirim va chiqimlar (dinamik yondashuv) usuli; pul oqimlari tahlili tanlangan ma'lum sanalar uchun bankdagi barcha kirim va chiqim pul oqimlarini hisoblash va ma'lum vaqt davomida bank tomonidan to'plangan statistik ma'lumotlarni tahlil qilishdan (to'lov taqvimini tuzish) iborat; ssenariy tahlili (stress test) bankning to'lov oqimlari hajmining o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarning yuzaga kelishini prognoz qilish va likvidlikni bank tanlagan ssenariylardan biriga muvofiq rejalashtirish imkonini beradi.

Ushbu usullarning kombinatsiyasi turli rejalashtirish gorizontlarida yuzaga keladigan likvidlik riski ehtimolini kuzatish va uni cheklash bo'yicha tadbirlarni oldindan amalga oshirish imkonini beradi.

Bank tomonidan likvidlikni boshqarish maqsadida hisoblangan ko'rsatkichlar bankning balans va balansdan tashqari majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan resurslar miqdorining yetarliligi va mavjudligini baholashga qaratilgan. Pul oqimlari bank majburiyatlarining bajarilishini ta'minlashi kerak, shu jumladan, agar xavf ssenariylari amalga oshirilsa.

Risk menejment departamenti likvidlik tavakkalchiligini boshqarishni nazorat qilish maqsadida, shuningdek stress-testlar doirasida likvidlik ko'rsatkichlariga amal qilinayotganligini baholab boradi. Likvidlik riskini boshqarishda bank quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanadi:

Lahzali likvidlik koeffitsiyenti

Likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR)

Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR)

Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi

GAP

Likvidlilikni qoplash me'vori koeffitsiyenti (bundan buyon matnda LQMK deb yuritiladi)

yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$LQML = \frac{YuLA}{Kirim - Chiqim} \times 100\%$$

Keyingi 30 kun ichidagi kirim keyingi 30 kun ichidagi chiqimning 75 foizidan oshgan taqdirda, keyingi 30 kun ichidagi kirim sifatida keyingi 30 kun ichidagi chiqimning 75 foizi olinadi.

Keyingi 30 kun ichidagi kirim va chiqimning qayta hisoblash koeffitsiyenti Markaziy bank tomonidan o'rnatiladi va majburiyatlarning turi va muddatiga bog'liq bo'ladi.

Bu yerda:

YuLA- yuqori likvidli aktivlar;

Chiqim– keyingi 30 kun ichida pul mablag'larining chiqishi;

Kirim– keyingi 30 kun ichida pul mablag'larining tushumi.

Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (SBMK) bankning barqaror manbalardan faol operatsiyalarni uzoq muddatli moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi. SBMK quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$SBMK = \frac{\text{Barqaror moliyalashtirish mavjud summa}}{\text{Barqaror moliyalashtirishning zarur summasi}} \times 100\%$$

Yuqori likvidli aktivlarning ulushi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\text{Yuqori likvidli aktivlar ulushi} = \frac{YuLA}{Aktivlar} \times 100\%$$

Likvidlik tafovuti (GAP) o'rta va uzoq muddatli istiqbolda potensial likvidlik kamchiliklarini aniqlash uchun hisoblanadi.

Likvidlik tanqisligi bank mijozlari/kontragentlarining xulq-atvor xususiyatlarini, shuningdek, rejalashtirilgan/kutilayotgan diskontlanmagan pul oqimlari va likvidlik riskiga ta'sir etuvchi hodisalarni hisobga olgan holda shartnoma bo'yicha pul oqimlari asosida hisoblanadi. Muddatlarni aniqlashda aktivlarni eng uzoq muddatga, majburiyatlarni eng qisqa muddatga ko'ra aks ettirishdan iborat konservatizm tamoyili qo'llaniladi.

Ko'rsatkichlar likvidlik xavfining miqdoriy ifodasidir. Likvidlik riskini nazorat qilish uchun bank likvidlik koeffitsiyentlari uchun risk appetitida chegaraviy va nazorat qiymatlarini belgilaydi. Risk darajasi metrik qiymatning uning chegara qiymatlariga yaqinligida ifodalanadi.

Foiz riski boshqaruvi doirasida foiz risklarni aniqlashning quyidagi tartiblari ajratiladi: foiz riski turlarini aniqlash; foiz riski turlarining muhimligini baholash; foiz riskiga xos bo'lgan operatsiyalarni aniqlash. Bankning g'aznachilik bo'linmasi foiz riskiga ta'sir ko'rsatadigan pozitsiyalarni dastlabki aniqlashni amalga oshiradi va foiz riskining tegishli risk ko'rsatkichlariga ta'sirini baholaydi. Foiz riski obyektlari valyutalar va foiz stavkalarining turlari bo'yicha aniqlanadi.

Foiz stavkalariga ta'sir etuvchi omillar inflyatsiyaning haqiqiy yoki kutilayotgan sur'atlarining o'zgarishi, devalvatsiya, investitsiyalar rentabelligi va ishlab chiqarish rentabelligi hamda kredit tavakkalchiligidir. Foiz stavkasi riskiga duchor bo'lgan bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari: sof foizli daromadi va sof foizli marja; kapitalning iqtisodiy qiymati.

Foiz riski foiz stavkalarining o'zgarishiga nisbatan elastik bo'lgan barcha moliyaviy vositalar uchun baholanadi. Foiz stavkalari darajasiga bog'liq bo'lgan bankning aktivlari va

majburiyatlari bo'yicha foizli daromadlar va xarajatlar hisoblangan foizlarga nisbatan elastik deb tan olinadi.

Foizga nisbatan elastik aktivlarga quyidagilar kiradi: boshqa banklarga joylashtirilgan depozitlar va kreditlar; Markaziy bankdagi foiz hisoblanadigan mablag'lar; daromadi va qiymati foiz stavkasiga bog'liq bo'lgan qimmatli qog'ozlari; foiz hisoblangan boshqa balans va balansdan tashqari talablar.

Foizga bog'liq majburiyatlarga quyidagilar kiradi: boshqa banklardan jalb qilingan depozitlar; Markaziy bankdan olingan foiz hisoblanadigan mablag'lar; mijozlarning foiz hisoblanadigan depozitlari; jalb qilingan kredit liniyalari; joylashtirilgan qarz qimmatli qog'ozlari; bank foizli xarajatlarni amalga oshiradigan boshqa balans va balansdan tashqari majburiyatlar.

Foiz stavkalarining o'zgarishiga nisbatan elastik bo'lmagan balans moddalariga quyidagilar kiradi: foiz hisoblanmaydigan bankning talablari va majburiyatlari; asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan to'lovlar mavjud bo'lgan yoki muddati o'tgan qarzning muddati to'lanmaganligini aniqlashning belgilangan mezonlariga javob beradigan kredit mahsulotlari; aksiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar; jismoniy shaxslarning talabiga ko'ra mablag'lar; yuridik shaxslarning joriy hisobvaraqlari; asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar; bank kapitali; balansdan tashqari talablar va majburiyatlar, foiz stavkasiga bog'liq bo'lmagan daromad va xarajatlar (masalan, kafolatlar, akkreditivlar).

Foiz riskini baholash uchun miqdoriy baholash usullari qo'llaniladi. Foiz riski ko'rsatkichlarini belgilangan vaqt oralig'ida hisoblash yo'li bilan baholanadi. Foiz riski baholash natijalari alohida mahsulotlar, vositalar va biznes sohalarini yanada rivojlantirish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarida hisobga olinishi mumkin.

Bankning sof foizli daromadi (SFD)ning elastikligiga asoslangan baholash (SFD usuli) ma'lum vaqt oralig'ida mumkin bo'lgan o'zgarishini aks ettiradi. Bu esa o'z navbatida bank kapitaliga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. SFD usulidan foydalangan holda foiz riskini baholash gorizonti uslubni almashtirish yoki uni bir xil muddatga uzaytirish bo'yicha taxminlarni hisobga olgan holda qisqa muddatli (bir yilgacha), ammo yangi foiz stavkasi bilan cheklangan va vaqt oralig'ida foiz stavkasi o'zgarishining ta'sirini qoplamagan holda, baholash gorizontidan tashqarida qoladi. SFD usuli yordamida foiz riskini baholash uchun GAP tahlili qabul qilinadi.

Foizlar bo'yicha GAP balans talablar hamda bankning shartnoma yoki to'lovni to'lash muddatlari bo'yicha majburiyatlari o'rtasidagi vaqtinchalik nomuvofiqlikni aks ettiradi. GAP tahlilini o'tkazish uchun bankning moliyaviy hisobotlariga elastik bo'lgan barcha bank vositalari ma'lum vaqt oralig'ida taqsimlanadi. Har bir vaqt oralig'i uchun foizlar bo'yicha GAP aktivlar miqdori va majburiyatlar summasi o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi va ularni qayta baholash davri tegishli vaqt oralig'iga to'g'ri keladi.

B_i to'lov savati uchun C valyutasidagi foizlar bo'yicha GAP quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$IRGap_{C,B_i} = \sum_{t=z_{i-1}+1}^{t=z_i} IRGap_C(t) = \sum_{t=z_{i-1}+1}^{t=z_i} (A_C(t) - L_C(t))$$

Bu yerda:

$A_C(t) = \sum a_C(t)$ - Aktivlar bo'yicha barcha pul oqimlarining $a_C(t)$ to'lov muddati t bo'lgan C valyutasidagi yig'indisi.

$L_C(t) = \sum l(t)$ - to'lov muddati qoldig'i t bo'lgan C valyutasidagi majburiyatlar bo'yicha $l(t)$ barcha pul oqimlarining yig'indisi.

z_{i-1} , - z_i kunlardagi i muddatli savatning z_i chegaralari (hisobot sanasidan tegishli chegaragacha bo'lgan kunlar soni), $z_{i-1} + 1$ esa savatning birinchi kunidir.

B_i to'lov savati uchun C valyutasidagi foizlar bo'yicha kumulyativ GAP quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$CumIRGap_{C,B_i} = CumIRGap_C(z_i) = \sum_{j=1}^{j=i} IRGap_{C,B_j} = \sum_{t=1}^{t=z_i} (A_C(t) - L_C(t))$$

Ham ijobiy, ham salbiy qiymatlarni qabul qilishi mumkin bo'lgan foizlar bo'yicha GAP qiymatiga asoslanib, foiz stavkalarining o'zgarishi natijasida SFDning mumkin bo'lgan o'zgarishi tahlili o'tkaziladi. Foizlar bo'yicha GAP qanchalik katta bo'lsa, foiz stavkalarining o'zgarishi natijasida ehtimoliy yo'qotish xavfi shunchalik ko'p bo'ladi.

Foizlar bo'yicha ijobiy GAP (foiz stavkalariga nisbatan elastik bo'lgan aktivlar foiz stavkalariga nisbatan elastik bo'lgan majburiyatlardan oshib ketadi) foiz stavkalari ko'tarilganda SFD ko'payadi va foiz stavkalari pasayganda kamayadi.

Foizlar bo'yicha salbiy GAP (foiz stavkalariga nisbatan elastik bo'lgan aktivlar foiz stavkalariga nisbatan elastik bo'lgan majburiyatlardan kichikroq) foiz stavkalari pasayganda SFD ko'payadi va foiz stavkalari ko'tarilganda kamayadi. Foizlar bo'yicha GAPga asoslanib, foiz stavkalarining o'zgarishi sababli SFDning mumkin bo'lgan o'zgarishi hisoblanadi. SFDning elastikligi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\Delta NII_C(h) = \frac{\Delta r/100}{365} \times \sum_{i=1}^{i=N} IRGap_{C,B_i} \times (h - T_i)$$

Bu erda:

T_i -muddat savatchasining i o'rtacha muddati:

$T_i = \frac{z_{i-1} + z_i}{2}$, bu yerda: z_{i-1} , z_i - kunlardagi i savatchasining chap va o'ng chegaralari;

N - h hisoblash gorizontidagi oxirgi muddatli savatning soni;

h - N muddatli portfelning o'ng chegarasiga teng tanlangan hisoblash gorizonti;

Δr - ma'lum bir ssenariy bo'yicha kutilayotgan foiz stavkalarining yillik o'zgarishi.

Yakuniy SFD elastikligi $\Delta NII_C(h)$ ni jamlash yo'li bilan hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Moliyaviy risk deganda tijorat banklari faoliyatida kredit, bozor va likvidlilik omillariga xos noaniqliklar natijasida bankning moliyaviy holati hamda barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kutilmagan moliyaviy yo'qotishlar ehtimoli deya tarif berish mumkin.

Tijorat banklarida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun kredit riskini imkon qadar aniq baholash va prognozlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Kredit portfeli risk darajasi chuqur tahlil qilinib va oldindan prognoz qilinganda, bank tomonidan ushbu risklarni minimallashtirishga qaratilgan adekvat tartibga solish choralari qo'llash hamda kredit portfeli sifatini oshirish imkoniyati yuzaga keladi, bu esa bank barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etishi lozim.

Kredit riskini stress-test qilish jarayonlarini muntazam ravishda joriy etish bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy va stressli vaziyatlarning ta'sirini oldindan aniqlash, ularni kamaytirish hamda oldini olish bo'yicha samarali choralarni ishlab chiqish nuqtayi nazaridan zarur. Kredit riski bo'yicha hisobot berish tizimini takomillashtirish esa kollegial boshqaruv organlarini kredit riski darajasi va uning o'zgarishlari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish orqali asoslangan qarorlar qabul qilinishini ta'minlashga xizmat qilishi maqsadga muvofiq.

Likvidlilik riskining mumkin bo'lgan darajasini hamda kapital yetarliligini inobatga olgan holda maksimal rentabellikka erishish maqsadida bank balansining optimal tuzilmasini shakllantirish ustidan muntazam nazoratni amalga oshirish zarur. Shuningdek, likvidlilik riski bo'yicha belgilangan limitlar va cheklovlarni bankning vakolatlari doirasida dastlabki tarzda ko'rib chiqish va ularni amaldagi moliyaviy holat hamda bozor sharoitlariga moslashtirib borish lozim.

Aktiv va passivlarni boshqarish bo'yicha tayyorlanadigan hisobotlarni muntazam tahlil qilish orqali likvidlik riskini boshqarish jarayoni ustidan samarali nazoratni ta'minlash bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq.

Bankning mas'ul tarkibiy bo'linmalari tomonidan foiz riskini identifikatsiyalash jarayonida belgilangan foiz stavkasi asosida shakllangan balans aktivlari, passivlari hamda balansdan tashqari talab va majburiyatlar bo'yicha to'lov muddatlaridagi nomuvofiqliklarni muntazam tahlil qilib borish zarur. Shuningdek, moliyaviy vositalar bo'yicha yangi foiz stavkalarining o'rnatilishi natijasida pozitsiyalar qiymatining o'zgarishi bilan bog'liq xavflarni aniqlash va baholash foiz riskini samarali boshqarish nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Al-Anbagi, A.T.K. (2025) 'The Role of Financial Statements in Reporting Financial Risks: A Case Study in the Baghdad Municipality', *International Journal of Finance & Banking Studies*, 14(3), pp. 159-165. <https://www.ssbfn.net.com/ojs/index.php/ijfbs/article/view/4505>

International Monetary Fund (2025) Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program – Detailed Assessment of Observance – Basel Core Principles for Effective Banking Supervision, IMF Country Report No. 25/227. <https://www.imf.org/-/media/files/publications/cr/2025/english/1uzbea2025004-source-pdf.pdf>

Juma, A.M. and Atheru, G. (2018) 'Financial Risks Analysis and Performance of Commercial Banks in Kenya', **Journal of Finance and Accounting**, Stratford Peer Reviewed Journals and Books, 2(2), pp. 76–95. <https://stratfordjournalpublishers.org/journals/index.php/journal-of-accounting/article/view/211>

Ngo, H.K. and Trinh, H.T.T. (2025) 'The impact of financial risks on bank performance: evidence from Bayesian analysis in Vietnam's commercial banks', **Discover Sustainability**, 6, article number 515. <https://link.springer.com/article/10.1007/s43621-025-01246-1>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023) "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida, Farmon PF-158. <https://lex.uz/docs/-6600413>

Skrebtsova, T.V. (2015) 'Finansovye riski v kommercheskom banke: osnovnye metodologicheskie aspekty upravleniya', **Scientific article**, <https://cyberleninka.ru/article/n/finansovye-riski-v-kommercheskom-banke-osnovnye-metodologicheskie-aspekty-upravleniya/viewer> (15-yanvar 2026-yilda kirilgan).

Ubul, R.B.U. and Kithandi, C.K. (2025) 'Effect of Financial Risk on Financial Performance of Banks Listed at Nairobi Securities Exchange, Kenya', *African Journal of Commercial Studies*, 6(5), pp. 101-116. <https://ijcsacademia.com/index.php/journal/article/view/348>

Wikipedia (2025) 'Financial risk', Wikipedia, The Free Encyclopedia. https://en.wikipedia.org/wiki/Financial_risk?utm_source